



## EKOTURIZMNI SAMARALI BOSHQARISH VA RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YECHIMLAR

*Xasanova Nigora Nizomovna*

*Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi  
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodisti,  
Sambhram universiteti 2-bosqich magistranti  
O'zbekiston*

*Email: [nigorax@554gmail.com](mailto:nigorax@554gmail.com)*

*Telefon: +99897 436-06-27*

### **Annotatsiya**

Maqolada ekologik turizmning nazariy asoslari, uning mohiyati va tasnifi, shuningdek, ekoturizmni boshqarish mexanizmlarining asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida ekologik turizmni rivojlantirishda samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan.

Shuningdek, yurtimizda ekoturizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida muhim ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ekoturizm, ekologik barqarorlik, turizm boshqaruvi, innovatsion yondashuv, xorijiy tajriba.

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

*Хасанова Нигора Низомовна*

*Джизакский областной центр педагогического мастерства  
Методист отдела методической службы,  
Магистратура 2-го курса Университета Самбрам*



Узбекистан

Email: [nigorax@554gmail.com](mailto:nigorax@554gmail.com)

Телефон: +99897 436-06-27

### **Аннотация**

В статье рассматриваются теоретические основы экологического туризма, его сущность и классификация, а также основные направления механизмов управления экотуризмом. Проанализирован опыт зарубежных стран и на основе результатов исследования обоснована необходимость разработки эффективных механизмов управления развитием экологического туризма.

Также представлена важная информация о реформах, проводимых в нашей стране в целях развития экотуризма.

**Ключевые слова:** Экотуризм, экологическая устойчивость, управление туризмом, инновационный подход, зарубежный опыт.

## **FOREIGN EXPERIENCE IN EFFECTIVE MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF ECOTOURISM: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SOLUTIONS**

*Xasanova Nigora Nizomovna*

*Jizzakh Regional Pedagogical Skills Center*

*Methodologist of the Methodological Service Department,*

*2nd year master's student of Sambhram University*

*Uzbekistan*

Email: [nigorax@554gmail.com](mailto:nigorax@554gmail.com)

Phone: +99897 436-06-27



### *Annotation*

The article considers the theoretical foundations of ecological tourism, its essence and classification, as well as the main directions of ecotourism management mechanisms. The experience of foreign countries is analyzed, and based on the results of the research, the need to develop effective management mechanisms for the development of ecological tourism is substantiated.

Also, important information is provided about the reforms being implemented in our country to develop ecotourism.

**Keywords:** Ecotourism, ecological sustainability, tourism management, innovation, international experience.

Ekologik turizm – bu **tabiat, inson va iqtisod o‘rtasida muvozanatni ta’minlaydigan** faoliyat turi bo‘lib, nafaqat sayyohlarga dam olish, balki **tabiatni asrab-avaylash va mahalliy rivojlanishga hissa qo‘shish** imkonini beradi.

Ekoturizm atamasi ilk bor 1980-yillarda paydo bo‘lib, u “tabiatga zarar yetkazmagan holda uni tomosha qilish, saqlash va mahalliy aholiga ijtimoiy hamda iqtisodiy foyda keltirish” maqsadini ko‘zlagan turizm turi sifatida ta’riflanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ekologik turizmni “atrof-muhitni muhofaza qilishga va mahalliy aholining farovonligini oshirishga hissa qo‘shadigan turizm” deb ta’riflaydi.

Ekoturizmning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish;
- Mahalliy madaniyatga hurmat bilan yondashish;
- Barqaror iqtisodiy faoliyat yaratish;
- Mahalliy aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qilish.



Ekoturizmni boshqarish murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- ✓ **Huquqiy-me‘yoriy mexanizmlar:** davlat siyosati, qonunlar va normativ hujjatlar;
- ✓ **Tashkiliy mexanizmlar:** hududiy boshqaruv, davlat-xususiy sheriklik modeli;
- ✓ **Iqtisodiy mexanizmlar:** soliq imtiyozlari, subsidiyalar, investitsiyalar jalb qilish;
- ✓ **Axborot-kommunikatsion texnologiyalar:** raqamli xaritalar, mobil ilovalar, onlayn ma’lumot bazalari.

Mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishga e’tiborning yuqoriligi aholining o‘sishi va xalqning farovon turmush tarzini ta’minlashda muhim omil sifatida baholanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish ushbu sohada ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

#### **Ma’lumot o‘rnida xorijiy tajriba tahlilini ushbu davlatlar misolida ko‘rib chiqsak:**

**Kosta-Rika** ekologik turizm bo‘yicha dunyoda ilg‘or o‘rinda turadi. Davlat darajasida ekologik hududlar qo‘riqlanadi, barcha turistik faoliyat qat’iy sertifikatlashtirilgan. Ekoturizm yalpi ichki mahsulotning 8-10 foizini tashkil etadi.

**Kanadada** milliy bog‘lar boshqaruvi Parks Canada agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruvda mahalliy jamoalar faol ishtirok etadi. Ekoturistik faoliyatlar ekologik monitoring bilan birgalikda olib boriladi.

**Germaniyada** esa ekologik turizmدا innovatsiyalar, ekologik transport masalan, velosiped, elektromobillar va yashil infratuzilmalar keng qo‘llaniladi. Bu yerda ekoturizm nafaqat dam olish turi, balki **tabiatni muhofaza qilish siyosatining**



**bir qismi** sifatida qaraladi. Hukumat “barqaror turizm” konsepsiyasini milliy rivojlanish strategiyasiga kiritgan. Mamlakatda **16 ta milliy bog‘**, **104 ta tabiat parki** va **18 ta biosfera rezervati** mavjud bo‘lib, **Bavariya o‘rmoni milliy bog‘i**, ekologik yurishlar va velosiped yo‘llari bilan mashhur (**Bayerischer Wald Nationalpark**) —**Shvartsvald (Qora o‘rmon)** va **Harz tog‘lari milliy bog‘i** - qayta tiklanayotgan tabiiy ekotizim modeli sifatida tanilgan. Bu joylarda avtomobilsiz yurish, chiqindi tashlamaslik, yovvoyi hayvonlarni bezovta qilmaslik kabi **eko-qoidalarga** qat’iy amal qilinadi.

Germaniyada ekoturizm shunchaki turizm emas, **milliy ong va madaniyatning bir qismi**. U nafaqat tabiatni saqlaydi, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Shu sababli Germaniya Yevropada **ekoturizmning ilg‘or modeli** sifatida tan olingan.

Odilona islohotlar samarasi o‘laroq ekoturizmni yo‘lga qo‘yish borasida yurtimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, hududiy boshqaruv va investitsiya jalb qilish maqsadida Surxondaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumani hududida Janubiy Surxon suv ombori atrofida 15,7 gektar maydonda zamonaviy va ekologik toza ekoturizm majmuasi barpo etilishi rejalashtirilgan. Loyiha doirasida yashil maydonlar, piyoda va velosiped yo‘laklari, oqova suvlarni tozalash tizimi kabi infratuzilmalar joriy etiladi. Loyihaning maqsadi mahalliy aholi uchun ish o‘rinlari yaratish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, butun hududni sayyohlar uchun jozibali qilishdan iborat.

Shuningdek, Jizzax viloyati Arnasoy tumani hududida Aydar-Arnasoy turizm zonasida yangi ekoturizm maskani barpo etilmoqda. Maskan doirasida ekologik mehmon-uylar, velosiped va piyoda sayr yo‘laklari hamda axborot markazi tashkil etilishi nazarda tutilgan.



Mahalliy jamoalarni ekoturizmga jalb qilish maqsadida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanida yoshlar ishtirokida “Yoshlar-kelajak bunyodkorlari!” mavzusida o‘tkazilgan IV Xalqaro ekoturizm qurultoyi ekologik-ijtimoiy yo‘nalishdagi loyiha bo‘lib, yoshlarni turizm va ekologiya sohasida faollashtirishni nazarda tutgani bilan ahamiyatlidir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, har bir islohot zamirida inson manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, aholi turmush tarzini yaxshilash va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashdek ezgu g‘oya mujassam. Ekoturizmni rivojlantirish va ekologik madaniyatni oshirish nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi, balki XXI asrda mintaqaviy iqlim o‘zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olishda inson salomatligini asrash, farovon turmush tarzini yaratish va aholining uzoq umr ko‘rishini ta’minlashda ekologik barqarorlikni ta’minlovchi muhim soha sifatida qaraladi.

Kosta-Rika, Kanada, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ekoturizmning muvaffaqiyati davlat siyosati, mahalliy boshqaruv tizimi va jamiyatning ekologik madaniyat darajasiga bevosita bog‘liq.

O‘rganishlar asosida aytishimiz mumkinki, O‘zbekiston sharoitida ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

- **Huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash** va ekologik turizmni alohida rivojlantirish dasturi sifatida qamrab olish;
- **Mahalliy boshqaruv organlari hamda jamoalarni faol jalb etish** orqali eko-loyihalarning ijtimoiy ta’sirini kuchaytirish;
- **Raqamli texnologiyalar** – geografik axborot tizimlari (GIS), onlayn rezervatsiya va mobil ilovalarni joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish;



- **Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish** va ekologik turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni keng jalb qilish;
- **Ekologik madaniyatni oshirish** orqali mahalliy aholini ekologik turizmga bevosita manfaatdor subyekt sifatida shakllantirish

Shuningdek, O‘zbekistonda ekologik turizmni boshqarish mexanizmlarini xorijiy ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga mos yangi boshqaruv modelini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning ekologik xavfsizligi, iqtisodiy o‘sishi va xalqaro imijini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNWTO. *Ecotourism and Sustainable Development*. 2020.
2. Honey, M. *Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise?* Island Press. 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi PF–60-son Farmoni.
4. Jamolov, A. “Ekoturizm va atrof-muhit: O‘zbekiston tajribasi”, *Turizm va iqtisodiyot*, №2. 2021.
5. Tursunov, B. “Ekoturizm sohasidagi xorijiy tajribalar”, *Iqtisodiyotni boshqarish masalalari*, №4. 2022.
6. World Bank. *Nature-based Tourism for Development: A Manual for Practitioners*. 2021.
7. Parks Canada Annual Report, 2020.
8. German Federal Ministry for the Environment. *Green Tourism Strategy*. 2019.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi rasmiy ma’lumotlari [www.env.uz](http://www.env.uz).
10. WTTC. *Travel & Tourism Economic Impact Report*. 2022.